

HIND ADABIYOTIDA “YANGI HIKOYA” YO‘NALISHI RIVOJIDA USHA PRIYAMVADA IJODINING O‘RNI

Xalilova Zaxro Kamoliddin qizi

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

Adabiyotshunoslik mutaxassisligi 2-kurs magistranti

E-mail : zakhro2698@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hind adabiyoti uchun yangilik sifatida 60-70 – yillarda rivoj topa boshlagan “yangi hikoya” yo‘nalishi hamda ushbu yo‘nalishni rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘shgan mustaqillik davri adibasi Usha Priyamvada ijodi, adiba hikoyalarining o‘ziga xosligi, boshqa yozuvchilardan farqli uslubi bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: “yangi hikoya”, modernizm, ayollar tanqidchiligi, avlodlararo munosabatlar, ijtimoiy hayot.

THE PLACE OF USHA PRIYAMVADA’S WORKS IN THE DEVELOPMENT OF THE “NEW STORY” DIRECTION IN INDIAN LITERATURE

Abstract: This article describes the direction of "new story" that began to develop in the 60s and 70s as a novelty for Indian literature and the works of Usha Priyamvada, a writer of the period of independence, who contributed to the development of this direction and the uniqueness of the author’s stories, her style.

Key words: “new story”, modernism, criticism of women, relationships between different generations public life.

1940-yillarning oxiriga kelib Hindistonda yangi adabiy yo‘nalish — modernizm shakllana boshladi. Ammo modernizm hind adabiyotiga jahon adabiyotida shakllanib ulgirkan qolipida kirmadi, balki, yozuvchilar tomonidan uning ma’lum xususiyatlari o‘zlashtirildi va asarlarida tadbiq etildi. Uning yetakchisi sifatida ilg‘or yozuvchi Agey hisoblanadi. Keyingi yillar davomida esa Hindiston adabiyotida ayol yozuvchilar ko‘paya bordi. XX asrning 50 – yillari ohiri va 70 – yillari boshlarida hindi adabiyotiga kirib kelgan ayol yozuvchilari o‘z ijodi bilan alohida o‘rin tutadi. Aynan mana shu davrda “mahilaa lekhan” (“ayollar yozuvi” , ba’zida esa “strii lekhan” atamasi ham qo‘llanilgan) hamda “mahilaa vimarsh” (“ ayollar tanqidchiligi”) atamaları ham paydo bo‘ldi.²⁵ 1950 – yildan 2000 – yilgacha bo‘lgan davrda ijod qilgan ayol yozuvchilarni Sunita Jayn uch davriy guruhga ajratadi. Birinchi davr guruhiga Krishna Sobti, Mannu Bhandari va Usha Priyamvada, ikkinchi davr guruhiga Mridula Garg, Manjula Bhagat, Mamta Kaliyani, uchinchi davr guruhiga esa Gitanjali Shri, Alku Saraogelarni kiritadi (Ushbu guruhlar ijodkorlarning yoshlariga qarab bo‘lingan).²⁶ Aynan birinchi guruh vakilalari bundan oldin hind jamiyati va adabiyoti uchun hos bo‘lmagan masalalarni o‘z asarlarida ko‘tarishdi. Bunday masalalar orasida ajrashgan ota – onalar va bola taqdiri, avlodlar o‘rtasidagi va ayol – erkak o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, yangi Hindistonda insonning o‘z o‘rnini topishi muammosi kabilar turadi. Usha Priyamvada ham “ayollar adabiyoti” vakilasi sifatida mana shu masalalarga qo‘l uradi. Uning ijodi ayni kunga qadar maxsus tadqiqot ob’yekti sifatida o‘rganilmagan, ammo P.Cheloshevning ishlarida u ijod qilgan davrning umumiy xususiyatlari berilgan.²⁷ Shuningdek, Usha Priyamvada ijodi haqida «Очерки истории литератур Индии: X–XX вв.»²⁸ nomli sharqshunoslarning monografiya to‘plamida hamda Priyamvada hikoyalari haqida qisman Dagman Ansariyning “Новые рассказы в литературе хинди” nomli ishida ham ma’lumotlar berilgan.²⁹

²⁵ Lutze Lathar. Hindi Writing in Post-colonial India, Manohar Publications, New Delhi, 1985

²⁶ Yadav Rajendra, “Admii kii nigaah mein strii” New Delhi, Patna, Ilahabad, 2010.

²⁷ Чельшев, Е. Индийская литература вчера и сегодня., М., 1989

²⁸ Коллективная монография, Очерки истории литератур Индии: X–XX вв., С.П., 2014

²⁹ Дагман Ансари, Новые рассказы в литературе хинди, Народы Азии и Африки , 1975 N 9

Professor Kamlesh Kumarining fikriga ko‘ra kelajak haqidagi ilg‘or qarashlarni o‘zida jamlagan g‘oyalarning, modernistik tushunchalarning ta’siri 50-70-yillardagi hind she’riyati va nasrida o‘z aksini topadi. Turli janrdagi asarlarning mavzulariga e’tibor berilsa, taqdir obrazi va "kichkina odam" obrazi juda dolzarb bo‘lib qoladi. Bunday syujetlar, ayniqsa, kichik adabiy janrlarga, masalan, hikoyaga ko‘proq moslashib boradi. Usha Priyamvada esa mahorat bilan shu obrazlarni yaratadi, taqdirini tizimga soladi³⁰.

Dagman Ansari ta’kidlashicha, Hindiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ilk yillarda yuqori avlod yozuvchilarining hikoyalari nashr qilinardi. Shu davrda yangi ismlar adabiyotga kirib kela boshladi: Moxan Rakesh, Kamaleshvar, Mannu Bhandari, Usha Priyamvada, Nirmal Varma va boshqalar. 50 – yillarning o‘rtasidan boshlab esa bu yosh ijodkorlar hindi nasrchiligining rivojlanishida yaqqol ta’sir ko‘rsata boshlashdi.³¹ Tanqidchilarning ta’kidlashicha “yangi hikoya” yo‘nalishi ijodkorlarining umumiy jihatlari ko‘p. Ular o‘rta qatlam vakillari bo‘lib, asosan, 50 - 60 yillar oralig‘ida yashagan aholi o‘rta qatlamining og‘ir taqdirini, ularning muammolarini yoritishgan.

Yozuvchining qaysi davr va qanday ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sharoitda yashagani uning adabiy merosida aks etadi. Uning shaxsiy hayotidagi kechinmalari, xotiralari, fantaziyalari uning asarlarida ozmi ko‘pmi o‘z ifodasini topadi. Shuning uchun ham, yozuvchining san’atiga baho berishdan avval uning shaxsiy hayoti bilan tanishish, uning shaxsini tahlil qilish foydalidir. Shu nuqtai nazardan, Usha Priyamvadaning tarjimai holi tahlil qilindi.

Usha Saksena (adibaning asl ismi sharifi Usha Saksenadir. Priyamvada onasining ismi o‘lib, Usha keyinchalik bu ismni tahallus sifatida oladi) 1931 yil 24 dekabrda Kanpur shahrida tug‘ilgan. Dastlabki ta’limni ham shu yerda oladi. Ilohobod universitetida ingliz adabiyoti bo‘yicha bakalavr, magistrlik hamda falsafa fanlari doktori (PhD) darajasini oladi. Dehlidagi Ledi Shri Ram kolleji va Ilohobod

³⁰ Kamlesh Kumari. Lecture on Usha Priyamvada

³¹ Дагман Ансари., Новые рассказы в литературе хинди: - Народы Азии и Африки N 2, 1975. - В. 90

universitetida dars bergan davrlarida, aniqroq aytsak, 1961 – yilda Fulbrayt stipendiyasini qo‘lga kiritadi va Amerikaga jo‘nab ketadi. Usha Priyamvada Indianadagi Blumington universitetida 2 yil davomida fan doktori darajasini olish uchun izlanish olib boradi. 1964 yildan boshlab Medisondagi Viskinson universiteti Janubiy Osiyo mamlakatlarini tadqiq qilish fakultetida hindi tili va adabiyotidan dars bera boshlaydi³². Aynan mana shu davrdan boshlab adibaning hikoya va romanlari mavzusi va g‘oyalarida, qahramon va syujetlarida o‘zgarishini, ya’ni, hind xalqiga chet ellik ko‘zi bilan qarash va ular hayotini tahlil qilish usullari o‘zgarganini kuzatish mumkin. Aqsh ta’lim vazirligi taklifiga ko‘ra bir qancha hindi tili darsliklarini yaratadi va ular mamlakat bo‘ylab universitetlarda o‘qitiladi. Bundan tashqari shartnoma asosida hindi tilidagi adabiyot darsliklari va bir necha hikoyalar to‘plami chop etildi. 1989 – yildan beri esa Priyamvada BBC ning bir qismi bo‘lgan “Amerikadan xabarlar” seriyasida haftalik byulleten chiqazib kelmoqda. Adibaning ilk romani 1961 – yilda yaratilgan bo‘lib, “पचपन खम्भे लाल दीवारें” deb nomlanadi. Bu roman keyinchalik BBC tomonidan filmga aylantirilgan, Hindiston televideniya serial shaklida uzatilgan³³.

Usha Priyamvadaning shaxsiy hayoti haqida gapirilsa, o‘zi ta’kidlaganidek, har narsa ham birinchi marotabasidan o‘xshayvermaydi. Birinchi turmushim 1977 – yilda buzildi (birinchi turmush o‘rtog‘ining ismi sharifi Kim Nilsson edi. Rasmiy hujjatlarda Usha Priyamvada Usha Saksena Nilsson deb yuritilgan). 1981 – yilda esa taqdirimni topdim deydi adiba (garvard universiteti professori Pyer Nikrog bilan oila quradi)³⁴. Yoshligidayoq ota mehridan judo bo‘ladi. Onasining qiyin mehnat ortidan ro‘zg‘or tebratganini ko‘rib ulg‘ayadi.

Bolaligidanoq adabiyotga moyilligi kuchli bo‘lgan Usha Priyamvada Sharatchandraning butun adabiyotini o‘qib chiqadi. Maktab davridayoq o‘z ustozlari (guru) Prakashchandra Gupta va Upendranath hikoyalarini hamda “Nirgun” adabiyoti vakillari hikoyalarini katta qiziqish bilan mutolaa qilgan. Adiba o‘zi ta’kidlashicha

³²Barbara., *UW Announces 136 faculty promotions.* // *Wisconsin State Journal– Madison.*: 1977. - B. 4-10

³³ Judd, Joan., *Cooking a Pleasure for Usha.* // *Wisconsin State Journal – Madison.*: 1977. – B. 26-30

³⁴ Judd, Joan., *Cooking a Pleasure for Usha.* // *Wisconsin State Journal – Madison.*: 1977. – B. 26-30

adabiyotga bo‘lgan qiziqishi hamda hikoya yozishga turtkini “कहानी” jurnalining muharriri bo‘lgan Shripat Rayjidan olgan, u S.Chattopadhyay va B.Chatterji kabi mualliflarni ko‘p o‘qigan va ularning fidoyi ayol qahramonlari ta’siri ostida bo‘lgan. Adabiyotga mehr qo‘yishiga shu yozuvchilarning asarlari ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan³⁵. Usha Priyamvada Lakhnau va Kanpurda onasining qo‘lida katta bo‘ladi. Otasiz o‘sganligi va oilada turmush o‘rtog‘i bo‘lmaganligi tufayli ham yosh onasining kamsitilishini, jamiyatdan chetda qolishini ko‘rib o‘sgan qizaloq xotiralari o‘z hikoyalarida takrorlangan. Priyamvadaning aytishicha, Dastlab yozgan hikoyalarida bu ta’sir yaqqol ko‘rinib turadi (1953 yilda yozilgan “Bikhre tikhre” – “Tarqoq uchlik” nomli hikoyasi bunga misol).³⁶Usha Priyamvadaning ilk hikoyasi “लालचूनर” nomi bilan “सरिता” jurnalida chop etiladi. Keyingi 3-4 yil ichida adiba ko‘plab hikoyalar yozadi. Ammo yozilgan dastlabki hikoyalar adiba ijodining keyingi 10 yilligida yozilgan hikoyalar kabi chuqur ma’no, tasvirga ega emas edi. Bunga sabab , balki, uning chet eldagi hayoti shu soha bilan uzviy bog‘langani va darsliklar chop ettirishiyu talabalar bilan uzviy ishlagani bo‘lgandir. Usha Priyamvada ko‘proq avlodlar o‘rtasidagi munosabatni va u bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan oila ichki masalalarini o‘z asarlarida ko‘tarishga harakat qiladi. Adiba hikoyalari ayollar hayotining murakkabligini, ayniqsa jamiyat ulardan talab qilgan so‘nmas xizmatlar hamda kutayotgan itoatkorlikni yoritishga harakat qiladi. Bunga sabab qilib uning og‘ir kechgan yoshligini ko‘rsatishimiz mumkin. Uning dastlabki asarlarida yaratgan qahramonlari mustaqil bo‘lishga intiladi va ko‘pincha erkinlikka erishadi ham. Adiba yaratgan ba’zi qahramonlar taqdirga qarshi chiqib o‘z imkoniyatlarini qo‘ldan boy berib qo‘yishadi, ba’zilari baxtsiz turmush o‘rtoqlarga nisbatan xudbinlik qiladilar (1953 – yilda yozilgan “मान और हठ” hikoyasi), ba’zilari yolg‘iz qoladilar (1969 – yilda yozilgan छुट्टी का दिन hikoyasi), boshqalari esa lahzada bo‘lsa ham baxt nima

³⁵ [1] [2] [3] [4] [5] [6] [7] [8] [9] [10] [11] [12] [13] [14] [15] [16] [17] [18] [19] [20] [21] [22] [23] [24] [25] [26] [27] [28] [29] [30] [31] [32] [33] [34] [35] [36] [37] [38] [39] [40] [41] [42] [43] [44] [45] [46] [47] [48] [49] [50] [51] [52] [53] [54] [55] [56] [57] [58] [59] [60] [61] [62] [63] [64] [65] [66] [67] [68] [69] [70] [71] [72] [73] [74] [75] [76] [77] [78] [79] [80] [81] [82] [83] [84] [85] [86] [87] [88] [89] [90] [91] [92] [93] [94] [95] [96] [97] [98] [99] [100] [101] [102] [103] [104] [105] [106] [107] [108] [109] [110] [111] [112] [113] [114] [115] [116] [117] [118] [119] [120] [121] [122] [123] [124] [125] [126] [127] [128] [129] [130] [131] [132] [133] [134] [135] [136] [137] [138] [139] [140] [141] [142] [143] [144] [145] [146] [147] [148] [149] [150] [151] [152] [153] [154] [155] [156] [157] [158] [159] [160] [161] [162] [163] [164] [165] [166] [167] [168] [169] [170] [171] [172] [173] [174] [175] [176] [177] [178] [179] [180] [181] [182] [183] [184] [185] [186] [187] [188] [189] [190] [191] [192] [193] [194] [195] [196] [197] [198] [199] [200] [201] [202] [203] [204] [205] [206] [207] [208] [209] [210] [211] [212] [213] [214] [215] [216] [217] [218] [219] [220] [221] [222] [223] [224] [225] [226] [227] [228] [229] [230] [231] [232] [233] [234] [235] [236] [237] [238] [239] [240] [241] [242] [243] [244] [245] [246] [247] [248] [249] [250] [251] [252] [253] [254] [255] [256] [257] [258] [259] [260] [261] [262] [263] [264] [265] [266] [267] [268] [269] [270] [271] [272] [273] [274] [275] [276] [277] [278] [279] [280] [281] [282] [283] [284] [285] [286] [287] [288] [289] [290] [291] [292] [293] [294] [295] [296] [297] [298] [299] [300] [301] [302] [303] [304] [305] [306] [307] [308] [309] [310] [311] [312] [313] [314] [315] [316] [317] [318] [319] [320] [321] [322] [323] [324] [325] [326] [327] [328] [329] [330] [331] [332] [333] [334] [335] [336] [337] [338] [339] [340] [341] [342] [343] [344] [345] [346] [347] [348] [349] [350] [351] [352] [353] [354] [355] [356] [357] [358] [359] [360] [361] [362] [363] [364] [365] [366] [367] [368] [369] [370] [371] [372] [373] [374] [375] [376] [377] [378] [379] [380] [381] [382] [383] [384] [385] [386] [387] [388] [389] [390] [391] [392] [393] [394] [395] [396] [397] [398] [399] [400] [401] [402] [403] [404] [405] [406] [407] [408] [409] [410] [411] [412] [413] [414] [415] [416] [417] [418] [419] [420] [421] [422] [423] [424] [425] [426] [427] [428] [429] [430] [431] [432] [433] [434] [435] [436] [437] [438] [439] [440] [441] [442] [443] [444] [445] [446] [447] [448] [449] [450] [451] [452] [453] [454] [455] [456] [457] [458] [459] [460] [461] [462] [463] [464] [465] [466] [467] [468] [469] [470] [471] [472] [473] [474] [475] [476] [477] [478] [479] [480] [481] [482] [483] [484] [485] [486] [487] [488] [489] [490] [491] [492] [493] [494] [495] [496] [497] [498] [499] [500] [501] [502] [503] [504] [505] [506] [507] [508] [509] [510] [511] [512] [513] [514] [515] [516] [517] [518] [519] [520] [521] [522] [523] [524] [525] [526] [527] [528] [529] [530] [531] [532] [533] [534] [535] [536] [537] [538] [539] [540] [541] [542] [543] [544] [545] [546] [547] [548] [549] [550] [551] [552] [553] [554] [555] [556] [557] [558] [559] [560] [561] [562] [563] [564] [565] [566] [567] [568] [569] [570] [571] [572] [573] [574] [575] [576] [577] [578] [579] [580] [581] [582] [583] [584] [585] [586] [587] [588] [589] [590] [591] [592] [593] [594] [595] [596] [597] [598] [599] [600] [601] [602] [603] [604] [605] [606] [607] [608] [609] [610] [611] [612] [613] [614] [615] [616] [617] [618] [619] [620] [621] [622] [623] [624] [625] [626] [627] [628] [629] [630] [631] [632] [633] [634] [635] [636] [637] [638] [639] [640] [641] [642] [643] [644] [645] [646] [647] [648] [649] [650] [651] [652] [653] [654] [655] [656] [657] [658] [659] [660] [661] [662] [663] [664] [665] [666] [667] [668] [669] [670] [671] [672] [673] [674] [675] [676] [677] [678] [679] [680] [681] [682] [683] [684] [685] [686] [687] [688] [689] [690] [691] [692] [693] [694] [695] [696] [697] [698] [699] [700] [701] [702] [703] [704] [705] [706] [707] [708] [709] [710] [711] [712] [713] [714] [715] [716] [717] [718] [719] [720] [721] [722] [723] [724] [725] [726] [727] [728] [729] [730] [731] [732] [733] [734] [735] [736] [737] [738] [739] [740] [741] [742] [743] [744] [745] [746] [747] [748] [749] [750] [751] [752] [753] [754] [755] [756] [757] [758] [759] [760] [761] [762] [763] [764] [765] [766] [767] [768] [769] [770] [771] [772] [773] [774] [775] [776] [777] [778] [779] [780] [781] [782] [783] [784] [785] [786] [787] [788] [789] [790] [791] [792] [793] [794] [795] [796] [797] [798] [799] [800] [801] [802] [803] [804] [805] [806] [807] [808] [809] [810] [811] [812] [813] [814] [815] [816] [817] [818] [819] [820] [821] [822] [823] [824] [825] [826] [827] [828] [829] [830] [831] [832] [833] [834] [835] [836] [837] [838] [839] [840] [841] [842] [843] [844] [845] [846] [847] [848] [849] [850] [851] [852] [853] [854] [855] [856] [857] [858] [859] [860] [861] [862] [863] [864] [865] [866] [867] [868] [869] [870] [871] [872] [873] [874] [875] [876] [877] [878] [879] [880] [881] [882] [883] [884] [885] [886] [887] [888] [889] [890] [891] [892] [893] [894] [895] [896] [897] [898] [899] [900] [901] [902] [903] [904] [905] [906] [907] [908] [909] [910] [911] [912] [913] [914] [915] [916] [917] [918] [919] [920] [921] [922] [923] [924] [925] [926] [927] [928] [929] [930] [931] [932] [933] [934] [935] [936] [937] [938] [939] [940] [941] [942] [943] [944] [945] [946] [947] [948] [949] [950] [951] [952] [953] [954] [955] [956] [957] [958] [959] [960] [961] [962] [963] [964] [965] [966] [967] [968] [969] [970] [971] [972] [973] [974] [975] [976] [977] [978] [979] [980] [981] [982] [983] [984] [985] [986] [987] [988] [989] [990] [991] [992] [993] [994] [995] [996] [997] [998] [999] [1000]

³⁶ Poonam Saxena., Lifting the veil on life as an Indian woman: - Hindustan times, 2020. – B. 32

ekanligini tuyadi (1961 – yilda yozilgan फिर बसंत आया hikoyasi), lekin har bir qahramonni umumlashtirib turuvchi jihat o‘zini qo‘lga ola biladi va yashashda davom etadi. Priyamvadaning AQSHdagi faoliyati davomida yaratilgan “yangi hikoya” yo‘nalishidagi hikoyalarda immigrant ayollarning ikki tomonlama dunyosi aks ettirilgan: ular yangi dunyoda ko‘proq tanlash erkinligi imkoniyatiga ega, ammo ular baribir o‘zlarini begonadek, yakkalanib qolgandek his qiladi va o‘z vatanlaridagi oilasini qo‘msaydi.

1976 – yilda Usha Priyamvada qisqa hikoyalar to‘plamlari uchun Uttar-Pradesh hukumati tomonidan “प्रेमचंद पुरस्कार” mukofoti bilan taqdirlanadi. Butun umri davomida qilgan xizmatlari uchun 2009 – yilda Hindiston hukumati tomonidan “पद्मभूषण डॉ. मोटूरि सत्यानारायण पुरस्कार” mukofoti topshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Дагман Ансари, Новые рассказы в литературе хинди, Народы Азии и Африки , 1975 N 9

2. Коллективная монография, Очерки истории литератур Индии: X–XX вв., С.П., 2014

3. Чельшев Е., Индийская литература вчера и сегодня., М., 1989

Ingliz tilidagi adabiyotlar:

4. Poonam Saxena, “Lifting the veil on life as an Indian woman, unattached” Hindustan times dec 18, 2020.

5. Lutze Lathar. “Hindi Writing in Post-colonial India”, Manohar Publications, New Delhi, 1985

Hindi tilidagi adabiyotlar:

6. Usha Priyamvada, “Pratinidhi kahaaniyaan”, 2018- Rajkamal prakashan pvt. Ltd., 13 – bet

7. Yadav Rajendra, “Admii kii nigaah mein strii” New Delhi, Patna, Ilahabad, 2010.
उषा प्रियम्वदा से अवधारणा मुदगल की लम्बी बातचीत: - "सारिका" (प्रथम पाक्षिक) , 15 जुलाई 1984.